FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING QARORI

150600, Yozyovon tumani Mustaqillik ko`chasi 1-uy, tel: (73) 412-15-15, www.yozyovon.uz

2022 - yil 17 - mart 82-11-165-Q/22 Yozyovon tuman hokimligi

Yangiobod mahalla fuqarolar yig`ini Adolat ko`chasida joylashgan 3 ta 2 qavatli jami 60 ta xonadonlarda yashayotgan fuqarolarning yashab turgan xonadonlarini xususiylashtirishga ruxsat berish haqida

O`zbekiston Respublikasining “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish haqida”gi 1993-yil 7-maydagi 846-XII-sonli Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 1-mart kunidagi “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirishni davom ettirish to`g`risida”gi 114-sonli va 1994- yil 28-iyundagi “Davlat uy-joy fondi xususiylashtirilishi munosabati bilan normativ hujjatlarni tasdiqlash to`g`risida”gi 325-sonli Qarorlariga muvofiq, Yangiobod mahalla fuqarolar yig`ini Adolat ko`chasida joylashgan 3 ta 2 qavatli jami 60 ta xonadonlarda yashayotgan fuqarolarning tuman hokimi nomiga yashab turgan xonadonlarini xususiy mulk qilib sotib olishda amaliy yordam so`rab yozgan arizalarini hamda Yozyovon tuman hokimligi qoshidagi uy-joy komissiyasining 2021-yil 7-oktabr kungi yig`ilish bayonini ko`rib chiqib, O`zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N

1. Yozyovon tuman Yangiobod mahalla fuqarolar yig`ini Adolat ko`chasida joylashgan 3 ta 2 qavatli jami 60 ta xonadonlarda yashayotgan fuqarolarning tuman hokimi nomiga yashab turgan xonadonlarini xususiy mulk qilib sotib olishda amaliy yordam so`rab yozgan arizalari qanoatlantirilsin hamda tuman hokimligi qoshidagi uy-joy komissiyasining 2021-yil 7-oktabr kungi yig`ilish bayoni tasdiqlansin.

2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 1-mart kungi “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirishni davom ettirish to`g`risida”gi 114-sonli hamda 1994-yil 28-iyundagi “Davlat uy-joy fondi xususiylashtirilishi munosabati bilan normativ xujjatlarni tasdiqlash to`g`risida”gi 325-sonli Qarorlariga asosan Yangiobod MFY Adolat ko`chasida joylashgan 3 ta 2 qavatli jami 60 ta xonadonlarda yashovchi fuqarolarga yashab turgan xonadonlarini xususiylashtirishga ruxsat berilsin.

3. Yozyovon tumani hokimligi qoshidagi “Xo`jalik xisobidagi uy-joylarni ro`yxatga olish, almashtirish va taqsimlash” bo`limi boshlig’i (D.Nazirov) ga

-tegishli davlat idoralari bilan birgalikda, amaldagi qonun va qarorlarga asosan, Yangiobod MFY Adolat ko`chasida joylashgan 3 ta 2 qavatli jami 60 ta xonadonlarda yashovchi fuqarolarga yashab turgan xonadonlarini xususiylashtirish ishlarida daxldor xujjatlarni rasmiylashtirish vazifasi topshirilsin.

4. Yangiobod MFY xududida joylashgan 3 ta 2 qavatli jami 60 ta xonadonlarda yashayotgan fuqarolarga;

-yashab turgan xonadonlari uchun soliq va boshqa kommunal to`lovlarni o`z vaqtida to`lash;

-yashab turgan turar joylarini atrof muxitini va tutash xududlarini toza saqlash hamda xonadonlaridan maqsadli va to`g`ri foydalanish vazifalari tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari D.Bekmirzaev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Djalilov D. T.**